

МЕТАФОРЫ И ЕГО ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ПОЭМЕ ЭРКИНА ВОХИДОВА

Р.А. Сувонова¹

Аннотация

В данной статье описываются особенности стилистических приемов в стихах. Происхождение этих приёмов тесно связаны с фольклорным жанром и в настоящее время он появляется, как аналогичные, метафора, метонимия и синекдоха. После обретения независимости наш язык обогащается и мы можем легко понять это в произведениях наших писателей и поэтов. В стихах поэта Эркина Вахидова использование стилистических метафор устройства несравнима, и мы можем увидеть это в анализе примеров.

Ключевые слова: стилистические, поэма, фольклор, метафора, метонимия, синекдоха.

O'tgan asr oxirida o'zbek xalqi hayotida ikki muhim voqea yuz berdi. Biri 1989-yili 21-oktabrda til mustaqilligiga, ikkinchisi 1991-yil 1-sentabrda davlat mustaqilligiga erishildi. Til mustaqilligi xalqimizni ong-shuurini yangi o'zanga solib yubordi. O'zligimizni anglay boshladik. Qadimiy qadriyatlarimiz, folklor janri va milliy an'analarimiz o'zbek tilida tiklana boshlandi.

O'zbekiston xalq shoiri, she'riyatning buyuk sultoni, shoir va adib Erkin Vohidov ijodida ham o'zgacha mazmunli ko'y yangradi. Shoir E.Vohidov 1936 yil 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Yangiariq tumanida tavallud topgan. U 1960 yil Toshkent Davlat Universiteti filologiya fakul'tetini tugatgan. Uning birinchi she'riy to'plami "Tong nafasi" nomi bilan 1961 yilda chop etildi. Keyinchalik esa "Nido", "Quyosh maskani" poemalari, "Bolalik", "Oqsoqol", "Bolalik ekan-da" kabi she'riy to'plamlari nashrdan chiqdi.

Shoir Erkin Vohidov ijodiyotida badiiy tasvir vositalari o'z o'rnini egallagan. Uning she'rlarida uslubiyatning barcha turlari mujassam. Biz badiiy tasvir vositalaridan biri **metaforaga** to'xtalamiz. Uslubiyatsohasinio'rganarekanmiztildayaratilganyangiasarlardametaforaninghozirgikundagirivoji, folklorjanrlariningo'rganilishi, badiiy matnlarda qo'llanish darajasivauningtalqinidolzarbvazifalardan biridir.

Uslubiyat-nutqning eng yaqin va muvofiq vositasini tavsiya etadi, me'yor qilib belgilaydi. Nutqning turli uslubiy qatlamlarida qo'llanmalardan vositalarini belgilab beradi. Shunga ko'ra uslubiyat so'z san'ati ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandır. Ana shu fan haqidagi tushunchalarimizni boyib borishida yozuvchilarimizning xizmati beqiyosdir.

Shoir Erkin Vohidov she'riyatida badiiy tasvir vositalarining o'rnini beqiyosdir. Ko'chimlardan o'xshatish, metofara, shoir satrlari bir-biri bilan talashib kelgan va go'zal san'at asarlarini yaratgan. So'z va iboralar ko'chma ma'nolarda qo'llanadi va natijada metafora hosil bo'ladi. Bu mumtoz adabiyotimizda, „*istiora*“ deb ham yuritiladi. O'xshatishdan tubdan farq qiladi. Metafora deb nutqqa obrazlilik, his-tuyg'u berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashliklarga asoslanib so'z va iboralarning ko'chma ma'noda qo'llanilishiga aytamiz. Masalan, yoshlik-g'uncha, yigitlik davri – umrning bahori kabi so'zlar bilan almashtirilishi mumkin.

Erkin Vohidov she'riyatidan metofaraga misollar keltiramiz:

Masalan,

Yellar olib qochdi qishning xolini,
Barglar chapak chalib uyg'ondi shodon.
Bo'toqlarga qo'nib gul kitobini

Varaqlashga tushdi bulbul g'azalxon.

¹Сувонова Рохила Акромовна – доцент, Самаркандский государственный университет, Узбекистан.

E.Vohidov "Saylanma" 6-bet.

Metaforalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda va kengaygan. Sodda metafora birgina so'zdan tashkil topadi, kengaygan metaforalar ikki va undan ortiq so'zdan tuziladi. Bu satrlarda "**gul**"sodda, "**chapak chalib**" ibora tartibda, "**bulbul g'azalxon**" birlimlari kengaygan metafora sanaladi.

Yana:

Barqut kiyib bezandi bog'lar,
Sahrolar ko'ksiga taqdi qizg'aldoq.
Quyosh etagiga oq bulut bog'lab,
O'rik shoxlarida qovurdi bodroq.
O'sha she'r, 6-bet.

Bu she'rda kengaygan metaforalardan foydalanilgan. Bular **sahrolar ko'ksiga, quyosh etagiga, qovurdi bodroq** kabillardir. Ushbu metaforalar ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Bu metaforalarni yashirin o'xshatish deyish mumkin.

Misol:

Bugun koinotda ezgu bir tashvish,
G'uncha gul bo'lay deb ko'zin ochadi.
Musicha oldidan bir dona cho'pni,
Chumchuq uyasiga olib qochadi.
"Saylanma" 6-bet.

Badiiy metafora bilan lingvistik metaforalarni bir-biridan farqlashimiz kerak, yuqoridagi misolda "**ko'zin ochadi**" deb g'unchaga nisbatan, "**bir tashvish**" so'z birlimlari esa koinotga nisbatan qo'llangan. Har ikkilasi ham insonga xos bo'lgan fazilatlar bo'lib, ko'chma ma'noda qo'llangan. Yana bir misol:

Shoirning "**Sakkizinchi mart**" she'ridan:

Bugun tong egnida atlasdan ko'ylak,
Shafaqqa ulangan qizlarday gulgun.
Ilk bora ko'z ochib chiqqan boychechak,
Sanamlar qo'liga intizor bugun.
Bugun go'zallikning qutlug' ayyomi,
Qizlarning ko'klamga mosligidir bu.
Yurakka limmo- lim muhabbat jomi,
Bahor kelganini rostligidir bu.
Siz axir siynasi samoni quchgan,
Sizning izmingizda zamini zamon.
Siz oy kemasida oy bo'lib uchgan,
Yorug' chehrangizdan olam charog'on.
Bugun ayyomingiz muborak qilib,
Zumrad sepin yoyibdi bahor.
Bahoriy qizlarning husniday to'lib,
Olam go'zalligi bo'lsin barqaror.

"Saylanma" 18-bet, 2001-yil.

Keltirgan misollarda kengaytirilgan, yashirin metaforalar mujassam bo'lib, ko'chimlar lingvistik metafora orqali o'quvchiga yetkazib berilgan.

Shoirning "**Qorxat**" she'riga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak:

Qor yog'ar osmonda oqqushlar uchar,
Qor yog'ar osmondan oq upkar tushar.
Qor yog'ar yeru falakni to'ldirib,
Bizlar ersak issiq uyda o'tirib.
Tark etolmay xalqimizning odatin,
Yozamiz do'stlarga do'stlik qorxatin.

Qorxat asli qorday oppoq dil xati,
Oq ko'ngilning mehri, tafti, hurmati.
Oshnalik, chin vafo izhori ul,
Taqi pinhon sevgining izhori ul.

Bu misolda ham “osmonda oqqushlar uchar”, “oq ko'ngilni mehri, tafti” iboralari ko'chma ma'noda qo'llangan va she'riyatga badiiylik bag'ishlagan.

Bizga ma'lumki, badiiy tasvir vositalaridan o'xshatish ham eng qadimiy ko'chimlardan biridir.

O'xshatish bir narsaning belgisi, mohiyatini ikkinchi narsa orqali bo'rttirib ko'rsatishidir. Metafora bilan o'xshatish bir-biriga yaqin tasviriy vositalardir. O'xshatishda leksik vositalar (kabi, o'xshar, misoli, timsoli) va grammatik qo'shimchalar (-dek, -day, -dan, -daqa) orqali ifodalanadi. Metafora esa nomlaydi. O'xshatishga misol:

She'riyatdan totli bo'lsin har taom,
Ol yanog'ingiz kabi olma, anor.
Ko'zlaringizdek charos boqsin xumor,
Eslatib ham pistalar xandoningiz
Yuzingizdek kulsa shirmoy noningiz.

Bu she'riy parchadagi “she'riyatday totli”, “ko'zlaringizdek charos”, “yuzingizdek kulsa shirmoy non” kabi grammatik qo'shimchalar va “oy yanog'ingiz” kabi leksik vosita bilan o'xshatish ifodalangan.

Bu she'riy misrada o'xshatishlar qatorida “pistalar xandoningiz” kabi metafora ham ishtirok etgan.

Biz atoqli yozuvchi, sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning she'riy to'plamlarini varaqlar ekanmiz, bir-biridan ta'sirchan va kamtarona she'rlarini o'qib vatan, ona, muhabbat, odamiylik mavzulari mujassamlashgan satrlarida badiiy tasvir vositalarining hammasini uchratishimiz mumkin va to'lqinlanib o'qiyimiz.

Yurtim,
Seni yana oldim qalamga
To'ying, shodiyonang bahona bo'lib
Yana kelib qo'nding tonggi misramga
Falak nisor etgan durdona bo'lib
Iqbol bitgan oshiyonim
O'zbekistonim
Toliyim bor ekan
Senga ham nafas
Otashin quyoshing bilan yo'g'rildim
Yuz yil avval emas, yuz yil so'ng emas
Tug'yonli asrda senda tug'ildim
Gullar sochding men ilk qo'ygan qadamga
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib,
Jahon ichra mening tengsiz jahonim,
O'zbekistonim.

Erkin Vohidov “She'r dunyosi”, 35-bet.

Ona vatan - O'zbekistonni madh etgan shoir “tonggi misramga qo'nding”, “oshiyonim”, “tug'yonli asr”, “nurli koshona” kabi so'z birikmalari orqali metafora hosil qilgan va uslubiy-funksional vazifani ifodalagan.

Erkin Vohidov “**Sharqiy qirg'oq**” she'rida shunday deydi:

Dardlar girdobida charx urar zamin
Majruh siynasidan silkib oqar qon
U har kun, har lahza minglab odamni
Sharqiy qirg'oqlarda bermoqda qurbon
Bombay, Magorasda odam tumonat,

Yaratgan bandasi misli tuproqdur
 Ochlik har soniya ming jonga ofat
 Jizg'anak ko'chalar – sharqiy qirg'oqdir.

Ushbu misralarda metaforaga misollar izlaydigan bo'lsak, bunda “majruh siynasidan”, “jizg'anak ko'chalar”, “silkiq oqar qon” va “sharqiy qirg'oq” kabi ko'chma ma'noli so'z birikmalarining o'z ma'nosi o'quvchiga ma'lumdir va metaforaning uslubiy-funksional xususiyatlarini ochib bergan. Tildagi ko'pgina so'zlar o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni, hatto o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolarni ifodalash uchun ham qo'llanadi. Bir predmet belgisi boshqa bir predmetga ko'chiriladi, o'xshatiladi.

Shoirlik – bu shirin jondan kechmoqdur
 Limmo-lim fidolik mayin ichmakdir.
 Shoirlik – jigarni ming pora etmak
 Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak
 O'zni tomchi-tomchi, zarra va zarra
 Elga qurbon qilib eng so'nggi karra.

Nazmiy asarlarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ta'sirchanligini kychaytirish uchun bir narsaning nomini belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishiga ko'chimlar deb ataymiz. Keltirilgan misollarda “fidolik mayin ichmakdir”, “bag'ir qoni bilan satrlar bitmak”, “o'zni tomchi, tomchi yoki zarra-zarra qilmak” kabi ko'chimlar metaforaga xos bo'lib, she'rda funksional-uslubiy xususiyatlarni ochib bergan.

Umuman shoir Erkin Vohidovning she'riy to'plamlarini varaqlar ekanmiz, undagi purma'no she'rlar sehri o'quvchini o'ziga tortadi va har birida badiiy tasvir vositalarining xoxlagan variantini topish imkoniyati mavjud. Metaforadan tashqari, metonimiya, senekdoxa, mubolag'a, o'xshatish va takrorning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin.

Badiiy asar tilida tasviriy vosita juda qadimiy va keng qo'llanuvchi xususiyatdir. Unda tilning rang-barang uslubiy imkoniyatlarini o'z ifodasini topadi. Davrlar o'tishi bilan ijtimoiy siyosiy hayotida yangilanish bo'lgani sari badiiy tilda ham yangicha jilolar paydo bo'ladi, tasviriy vositalar yangicha mazmun kasb etadi. Shu sababli ham sintaktik figuralar va troplar yozuvchilarning tili va uslubiy doirasida o'rganish filologiya, xususan tilshunoslik fani oldida hamisha dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib qoladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda badiiy tasvir vositalarini o'rganishga katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Адабиётлар

1. Mirziyoyev SH . Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston, Toshkent-2017, B.485.
2. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Karimov S.A. O'zbek tili funksional stilistikasi.- Samarqand, 2010.
5. Suvonova R. O'zbek tilida metonimiya.- Toshkent: A.Qodiriy, 2004.
6. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari.- Toshkent: Fan, 1977.
7. Vohidov E. Saylanma. 2-jild. Toshkent: Sharq, 2001.
8. Vohidov E. Orzuli dunyo. Toshkent: Sharq, 2010.

© P.A. Сувонова, 2019